

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova	272
Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev	
Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova	
O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova	
Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova	
Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish	293
A.A.Ergashev	
Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi	298
I.Rustamov	
Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli	302
M.Nasridinova	
Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'rni.....	306
M.V.Nasridinov	
Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni	310
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	315
N.N.Norxo'jayeva	
Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni	322
D.B.Toshpo'latova	
Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
M.Ф.Рахмоналиева	
Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva	
O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli	340
M.A.Abdujalilova	
Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes	348
U.T.Isakov	
O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova	
Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'apporov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov	
O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqlash tahlillari	360
Y.Y.Turakulov	
Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



УО'К: 14(091):2-582.4(=18)

ABU ALI IBN SINO VA TASAVVUF**АБУ АЛИ ИБН СИНА И СУФИЗМ****ABU ALI IBN SINA AND SUFISM****Xolova Umida Umedovna**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola qomusiy alloma Abu Ali Ibn Sino va uning serqirra ilmiy merosiga bag'ishlangan. Ibn Sino merosi dunyo xalqlari ma'nnaviy xazinasi hisoblanadi. Uning boy merosi hali yetarlicha o'rganilgan emas. Ayniqsa, tafsir, tasavvuf va mantiq ilmlariga doir asarları tadqiqotchisini kutib turibdi. Maqolada Ibn Sinoning tasavvuf ilmiga munosabati Markaziy Osiyo falsafiyi, tasavvufiyi qarashlariga ta'siri masalalari keng va ishonchli manbalar asosida tahlil etilgan.

Absract

This article is dedicated to the encyclopedist scholar Abu Ali Ibn Sina and his great scientific legacy. Ibn Sina's heritage is considered a spiritual treasure of the peoples of the world. His rich heritage has not been studied enough. Especially waiting for the researcher of his works on the sciences of tafsir, mysticism and logic. In the article, Ibn Sina's attitude to Sufism is analyzed on the basis of wide and reliable sources.

Аннотация

Данная статья посвящена ученому-энциклопедисту Абу Али ибн Сине и его великому научному наследию. Наследие Ибн Сины считается духовным сокровищем народов мира. Его богатое наследие изучено недостаточно. Особенно ждут исследователя его труды по наукам тафсира, мистики и логики. В статье на основе обширных и достоверных источников анализируется отношение Ибн Сины к суфизму.

Kalit so'zlar: Shayx ar-Rais, tafsir, fiqh, hadis, tasavvuf, donishmand, alloma, qomus, vujud, vahdat, panteizm, ishorat, tanbeh, borliq, yo'qlik, zuhd, tabattul, mashriq.

Key words: Shaykh al-Rais, tafsir, fiqh, hadith, mysticism, sage, scholar, dictionary, existence, unity, pantheism, reference, rebuke, existence, non-existence, zuhd, tabattul, mashriq.

Ключевые слова: Шейх ар-Раис, тафсир, фикх, хадис, мистика, мудрец, учёный, словарь, существование, единство, пантеизм, ссылка, упрек, существование, небытие, зухд, табаттуль, машрик.

KIRISH

Movarounnahr qadimdan ilm-ma'rifat markazalaridan biri bo'lib, bu zaminda azaldan shart-sharoit, ustoz-shogird an'analari, ilmga kuchli rag'bat bo'lganki, buyuk siymolar yetishib chiqqanlar.Ularning dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi umume'tirof etilgan.Shunday ulug' mutafakkirlardan biri qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino hisoblanadi. Ibn Sinoning to'liq ismi sharifi Abu Ali al-Huseyn ibn Abduloh ibn Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh bo'lgan. Arablar rusumiga ko'ra o'z ismini o'g'li nomi bilan atagan.O'g'il ko'rmanganlar esa, oldindan kelajakda tug'iladigan o'g'liga ham ism topib qo'yib o'zlarini o'shangan nisbat berganlar. Ibn Sino ham o'g'il ko'rgan yoki ko'rmanligi aniq emas, biroq u o'ziga Alining otasi kunyasini olgan va u ism darajasiga o'tgan. Ibn Sino manbalarda "Shayx" deb tilga olinadi.

Shayx-aslida keksa, oqsoqol ma'nosida bo'lsada, Ibn Sinoga nisbat berganda donishmand, faylasuf, alloma ma'nosida keladi. Faylasuflar uni "Shayx ar-Rais" deb ataganlar. Bu donishmandlar (Raisi) boshlig'i yoki yetakchisi ma'nosini beradi. Tadqiqotlarda uning Ibn Sino nomi keyinchalik G'arb tillariga tarjima qilinganda "Avitsenna" tarzida kelgani ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

"Ibn Sino" ning ma'nosи borasida ya'ni, uning fors, arab yoki turkiylardan bo'lganligi borasidagi bahslar ham mavjud. Lev Gumilev "Qadimgi turklar"[1.4.] deb nomlangan kitobida mo'g'ulcha "Ashina" "oliyanob bo'ri" so'zini "Kushon" davlati nomi bilan bog'lab Shino/Chino so'zini

ILMIY AXBOROT

“Bo’ri” tushunchasini ifodalovchi so’z bilan bog’lab tushuntiradi. Agar shunday bo’lsa, bu ilmiy jihatdan to’g’ri bo’lsa, Ibn Sino ismidagi “Sino” agar Shino yoki Chino bo’ladigan bo’lsa, arablar uni Ibn Sino “Bo’rivachcha” deb atashi, uni turkiy qavmlardan ekaniga ishora qiladi degan faraz paydo bo’ladi. Albatta, buyuklar bir millat yoki qavm doirasiga sig’maydilar, ular insoniyat uchun beqiyos xizmatlar qilganlar shuning uchun ular “bashariyatniki” bashariyatga tegishli bo’ladilar. Biz uning millat xususida bahslashmoqchi emasmiz. Uning Mavarounnaharda Buxoro zaminida tug’ilib o’sganining o’zi bizda yuksak g’urur va iftixor bag’ishlaydi.

Ibn Sinoning ilmiy merosi hali tugal o’rganilgan emas. Uning tibbiyotga tegishli asarlari, tabiiy ilmiy fanlar, falsafa, ilohiyot bilan bog’liq ilmiy merosi bir qadar o’rganilgan. Uning ilohiyot, falsafa va tasavvufga oid ma’naviy merosi haligacha yetarli darajada chuqur o’rganilgan emas.

Ibn Sino yoshligidan Qur'on ilmlari, fiqh, tafsir, arab tili, ritorika, she'r san'atlarini ishtiyoq bilan o’rgangan. Buxoroda Somoniylar davridagi madaniy-ma’naviy muhit, ilm-fanga bo’lgan e’tibor ko’plab fanlarning shakllanishi va rivojlanishiga, olimu-fuzalolar yetishib chiqishi uchun ham zamin yaratgan edi. Bu davrlarda Buxoro “Qal’atul-ilm”, “Qubatul-islom”, “Madinatul Madoris” nomlari bilan nom qozonib butun musulmon olamidan tolibi ilmlar kelib tahsil olganlar. Ibn Sino ham shu davrda barcha ilmlarni egallagani ma'lum. Alloma o’zi haqida yozib, “Buxoroga Abu Abdulloh Noiliy kelib qoldi, u kishi falsafadan ustoz edi. Otam uni menga ta’lim beradi degan umidda uyimizga ko’chirib keldi. Ungacha Ismoil Zohiddan (402/1002y) fiqh ilmini o’rganyotgandim. Abdulloh Noiliy huzurida “Isog’uji” kitobini o’rganishni boshladim” -deb yozadi[2.3.].

Aytish mumkinki, Parfiriyning “Mantiqqa muqaddima” asari “Isog’uji” nomi bilan mashhur bo’lgan. O’rta asrlarda mantiq ilmini o’rganuvchilar uchun qo’llanma vazifasini o’tagan. Parfiriy Plotin va Arastu asarlariga sharhlar yozgan. U ko’proq Arastuning mantiqqa oid asarlarini sharhlagan demak, Ibn Sinoning Arastuchilik va neoplotonchilik ta’limotlari bilan tanishuvi shundan boshlangan deyish mumkin.

Buxorolik tasavvuf nazariyotchisi naqshbandiya tariqati shayxlaridan biri Muhammad bin Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (1348-11419yy.) o’zining mashhur “Fasl al-Xitob” (“Qat’iy qaror”) nomli asarida o’zining vatandoshi qomusiy olim Ibn Sino haqida shunday yozadi: “Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Husan ibn Ali ibn Sino ahli nazarning ustozi va muqtadosi va raisidir. Bu yo’ldagi izlanishlarida dastlab nazariy quvvatning fitratini sog’lomashtirish mumkinligini u orqali “zavq” va “ilhom” yo’lini ochish imkonli borligini rad etuvchilar yo’lidan ketdi. Ibn Sino ko’p o’rinlarda narsalarning haqiqatlarini anglash basharning qudratida emasligini aksincha, insonning bosh g’oyasi narsalarning xususiyatlarini va ularning qaysi biri foydali, qaysi biri foydasiz ekanligini aniqlash ekanligini aytди. Bu bilan u o’zining maqsadi va fikrining to’g’riligini qat’iy bayon qilgan bo’lsada, keyinroq yana Haq ma’rifati masalasida o’zining avvalgi aytgan fikrlariiga xilof fikrlarni bildirgani ma'lum. Hayotining so’nggida u tavba qildi, o’zida bor narsalarni kambag’allarga sadaqa qilib berdi, mazlumlarga yordamlashdi.

Qur’onni yoddan o’qib, har uch kunda xatm qillardi. 428 hijriy sanada ramazon oyining birinchi jumasi kuni vafot etdi. Hamadon shahriga dafn etilgan. Uning tug’ilishi 370 h. sana ba’zi manbalarda 373 h. deyilgan. Otasi Balxlik kishi edi. Nuh ibn Mansur podshohlik davrida Buxoroga ko’chib kelib, Xarmitan qishlog’iga oqsoqol bo’ldi. Afshona qishlog’ida yashab, shu yerda uylandi va Abu Ali shu joyda tug’ildi. Keyinchalik Buxoro shahriga ko’chib va “fiqh” bilan shug’ullandi. Bu yo’nalishda ustozi Imom Ismoil az-Zohid hisoblanadi.

Imom Yofi’iyning ma'lumot berishicha. Abu Ali 18 yoshga hali to’imasidan barcha ilmlarni to’liq o’rgangan. Uning yozgan kitoblari 100 ga yaqin. Ulardan “Risolatut-tayr” (“Qush haqida risola”) asari juda mashhur. U kishi musulmon faylasuflaridan biridir. U zot “zohidlik” va “tabattul” (dunyodan uzilish) bilan botinini poklagan hamda o’z maqsadlari cho’qqisiga yetgan edi” .[3.299.].

Shayx ar-Rais Ibn Sino haqida XIV asr oxiri XV asr boshlarida Temuriylar sultanatida juda katta ehtiromga sazovor bo’lgan, temuriy shaxzodalar Shohrux Mirzo, Ulug’bek Mirzolar bilan muloqotda bo’lgan mutasavvif al-Hofiz al-Buxoriy- (Xoja Muhammad Porso-laqabi mashhur) Ibn Sino haqidagi qarashlari Ibn Sinoning tasavvuf namoyandalari e’tiborida bo’lganligi, ularning tasavvuf falsafasiga oid fikr va qarashlariga o’ziga xos ta’siri ko’rsatganini anglatadi. Xoja Muhammad Porsoning Buxoroda (1407-1408 y) o’zi rahbarlik qilgan uning nomi mashhur o’z muhriga ega bo’lgan kutubxonasi bo’lib, ushbu kutubxonada Ibn Sinoning ham ko’plab asarlari saqlangan. Ikkinchidan, Abu Homid G’azzoliyning “Tahofut al-Falosifa” asarida Forobiy, Ibn Sino

kabi musulmon faylasuflarining ayrim masalalardagi qarashlariga raddiyasi ham sabab bo'lgani ehtimoldan xoli emas. Chunki, Xoja Muhammad Porsoning fikrlari Ibn Rushd singari G'azzoliy fikrlariga raddiya shaklida bo'lmasada, uning zamirida Ibn Sinoni himoya qilishdek, qarash sezilib turadi. Uchinchidan, uning "Risola at-Toyr"asari dastlabki ramzlar, ishoralar, isteoralar asosida yozilgan, nafsnig holati, ruhning poklanishi, nafs tarbiyasi, inson va hayvonot sifatlari xususidagi mukammal (tasavvufiy) irfoniy-falsafiy risola ekanligiga ishora bor. Uning ushbu risolasi keyingi davrlarda Fariduddin Attorning "Mantiq at-Toyr", Abu Homid G'azzoliyning "Risola at-Toyr", Alisher Navoiyning "Lisonut-Toyr" kabi asarlarning yaratilishiga zamin bo'lganligiga shubha yo'q. Shuningdek, Xoja Muhammad Porso Ibn Sinoning tasavvuf ilmida "Zuhd" ("zohidlik") va "Tabattul" ("dunyodan uzilish") tajribalari bilan botinini poklagan, hol ilmidan xabardor irfon sohibi ekanligini ham uqtiradi.

Demak, biz Ibn Sino "Shayxur-Rais" deganda uni "tasavvuf shayxi" "so'fiy kishi" bo'lgan deyishdan yiroqmiz. Ammo Ibn Sino Sharqning buyuk faylasufi, ilohiyotchisi shu nutai nazardan Sharq falsafiy tafakkuri madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan tasavvuf falsafasiga ham beqiyos hissa qo'shgan olimdir. Uning "at-Toyr" risolasidagi "nafs tuzog'i", "ruhning kamoli" xususidagi qarashlari yoki "Ruh" haqidagi qasidasidagi irfoniy mazmun mohiyat uning tasavvuf falsafasi mavzularini boyitgani ayni haqiqat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ibn Sino yunon faylasuflarining asarlarini sharhlovchisi yoki targ'ibotchisi emas, balki, sharqning o'ziga xos bo'lgan dunyoni anglash, inson tabiatini va mohiyatini bilish, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda sharqona falsafiy yondashuvlar tizimini ishlab chiqishga harakat qilgani taxsinga sazovor. Uning "ash-Shifo" va mantiqqa bag'ishlangan qarashlarida "hikmat al-Mashriqiya" iborasini qo'llagani bunga asos bo'la oladi.

Bundan tashqari, Ibn Sinoning Qur'on tafsirlariga bag'ishlangan asarlarini tahlil qilgan Sharq va G'arb olimlari uning falsafiy yondashuvlarini qo'llab quvvatlaganlar ba'zan esa, "ma'sur" ya'n'i Qur'oni hadis bilan yoki Qur'oni Qur'on bilan tafsir qilish qoidalaridan chiqib, ramz, ishoralar bilan tafsir qilganini e'tirof etib, uni faqat "Xos" lar anglashi mumkinligini ta'kidlanganlar. Jumladan, Ibn Sinoning "al Haqqa", "Muddassir", "Nur" surasi, "Falaq" suralari oyatlarining tasavvufiy "Ishoriy" tafsirlarida uning o'z uslubi bo'lganini, falsafiy-irfoniy yondashuvlari o'ziga xos islom aqidasiga zid bo'lgan tarzda ifodlanganligi ko'rsatadi.

Shu ma'noda, tasavvuf falsafasini Ibn Sino falsafasining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino dunyoqarashi uning bilish qobiliyati falsafa yoki diniy qarashlar tizimi bilan chegaralanishi mumkin emas. Sharqning o'ziga xos irfon falsafasi hisoblangan "tasavvuf"-hukm, xulosa chiqarish yoki g'ayrioddiy tushunchalar to'qimasi bo'lmay hurifikrlilik, inson tafakkurini kengaytiradigan, dunyoqarashini boyitadigan irfoniy-falsafiy ta'lomitidir. Shu bois, Ibn Sinoning tasavvufdan uzoq bo'lishi yoki uni qiziqtirmagan deyish noto'g'ri bo'ladi. "Hayy ibn Yaqzon", "Risola fil Ishq", "Risola at-Toyr", "Ishorat va tanbehot", "Nafs haqida qasida" lari o'ziga xos ramzlar, ishoratlar, isteoralar bilan irfoniy-falsafiy tusda yozilgani fikrimizni dalilaydi.

Chunonchi, tasavvufning asosiy g'oyasi nafs tarbiyasi, ruh tazkiyasi, go'zal axloqqa yetishish "tajriba"sidir. Asl mohiyati zuhd va taqvo bilan xulqni sayqallash, ruhni poklash, aql va ruhga tayangan tafakkur quvvati, inson ma'naviy markazi bo'lgan qalbni mosivodan ajratib komillikka erishish. Shu ma'noda tasavvufni xulq, qalb, hol ilmi ham desa, bo'ladi. Ibn Sinoning yuqorida keltirilgan risolalarini har kim ham tushunavermagan. Aytish joizki, tasavvufning tili "qush tili", "ko'ngil tili" deb ta'riflangan. Ushbu nodir risolalarning murakkabligi, anglash qiyinligi shundaki, ular chuqur irfoniy mushohadalar, mukoshafatlar mahsuli bo'lib, Ibn Sinoning "qush tili" da, "ko'ngil tili" da yozganligida. Ibn Sino falsafasida dunyoning foniyligi, uni butga aylantirmaslik, o'tkinchi nafsu-havoga ergashmaslik, ilm, amal va ilohiy ishq yo'lini mahkam tutish, dunyo g'amtashvishlariga o'ralashib, muruvvat, mehr-shavqat, saxovat, muhabbat talabidan uzoqlashmaslik bosh maqsad-bular islomiy asoslar. Sharqning insonsevarlik, hayotsevarlik g'oyalari Haq ma'rifati va haqiqatni anglash yo'llari Ibn Sino qarashlarida yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Ibn Sino o'z davrida Sharq falsafiy tafakkuriga yangi "Ruh" olib kirgan buyuk faylasuf.

Zotan, o'rta asrlarda yunon faylasuflarining qarashlari musulmon sharqida keng yoyilishi natijasida olam va odam, Yaratuvchi va inson masalasi falsafa va tasavvufning bahs maydonini kengaytirdi. Mutasavviiflar tasavvufning nazariy masalalarini ishlab chiqib, tasavvuf falsafasining

ILMIY AXBOROT

mohiyatini Haqni tanish, dunyoni bilish, o'zlikni anglashning "irfon" yo'li, "shaxsiy tajriba"-tariqat tajribalari, ta'lomitlarini asosladilar.

Ibn Sino ham Qur'onning "Nur" surasi 35-oyati ya'ni, "Alloh yero osmonning nuridir" [4.354] –deb boshlangan oyati tafsiri orqali o'z davrida panteizmdan farqli ravishda "tajalliy" ("jilolanish") ya'ni, butun borliq Haqning tajalliyi ekanligi xususidagi fikrlarni boyitib, tasavvuf falsafasining ontologik masalalari takomillashishiga muhim hissa qo'shdi.

Abu Homid G'azzoliy ham o'z davrda ushbu oyat tafsiri asosida "Mishkot al-Anvor" asarini yozgani ilm ahllariga yaxshi tanish. Ibn Sinodan keyin tajalliy nazariyasi Sahl ibn Abdullo at-Tustariy, Abu Bakr Kalobodiy va boshqa tasavvuf nazariyotchilari asarlarida takomillashtirilganini kuzatish mumkin. Xoja Muhammad Porso Ibn Sino qarashlariga ergashib, "Tahqiqot" asarida "Haq o'zining vujudiy fayzi va O'zining vujudi [5.1.] bilan narsalarga shakl-shamoyillar kiydirdi. O'zining vujudi nuri (tajalliyi) bilan ularni ko'rindigan qilib qo'ydi. O'zining shuhudi baqosida (yakka-yu yagonaligining, ibtidosiz va intihosizligining guvohi sifatida) boqiy bo'lishlari uchun tajalliy etdi. Borliqda o'zining mavjudligini oshkor etdi. O'zining uluhiyatining (ilohiy mutlaqiyat yoki hamma narsadan ulug'ligi sifati bilan) dalili uchun yagonalikda "kasrat" ("ko'plik") ni (birlikda ko'plikni) joylashtirdi" [6.1].-deb ta'kidlaydi.

Ikkinci ta'kid: Muhammad Porso "Tahqiqot" asarida "vujud" azaliy va qadim bo'lmasa, "hodis", ya'ni yaratiqlar ham aslida bo'lmas edi. Tabiatda yaratiqlar zotiy vujudga ega emas. Zotiy vujudga ega bo'lgan narsa bu-“vojibul-vujud”, dir. Allah “vojib” o'z zoti bilan uni zotida tasavvur etmaydi. Ya'ni, o'zining bor bo'lishi uchun u vujudga muhtoj emas. Shuningdek, "vujud" bo'Imagan narsa vojib bo'la olmaydi. Chunki, vojiblik faqat "vujud" ga xosdir, deb bayon qiladi. Ibn Sinoning "Yo'q bo'lishi mumkin bo'Imagan, bor bo'lishi esa, zarur bo'lgan narsa "vojibul-vujud" dir. Borlig'i ham yo'qligi ham zarur bo'Imagan narsa esa, "mumkinul-vujud" degan qarashlarini tahlil etib, "Tahqiqot" da Haq "vujudi azaliy" si hamda "hodis" bu yaratilganlarga tegishli vujud. Vujudi qadim (Allah) bu azaliy zot. Hodis (yaratilgan) vujudining zotiy vujudga dahli yo'q. Haqning ma'rifatiga yo'il faqat, fe'li bilan sifatiga, sifati bilan ismiga, ismi bilan zotiga tomon bo'lishi mumkin, degan, o'zining zot ma'rifatini anglash konsepsiyasini ilgari suradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xullas, Ibn Sino falsafa, ilohiyot, tasavvuf falsafasi rivojida muhim hissa qo'shdi. O'z davri va keyingi zamonlarda xususan, Sharq falsafasi, aniq fanlar, tabiiy fanlar, tibb ilmlari taraqqiyotini ta'minladi. Inson taqdiri va tarbiyasi dunyodagi hamma diniy, axloqiy, falsafiy ta'lomitlarning markaziy muammosi hisoblanadi.

Bu tabiiy, inson qismati bilan chuqur qiziqib, faollik ko'rsatmagan ta'lomitning nufuzi o'ziga yarasha bo'lganidek, umri ham uzoqqa cho'zilmaydi. Ibn Sino ta'lomi uning insoniyatga taqdim yetgan kashfiyotlari asrlar osha bashariyatni tarbiyalashga o'zini anglashga da'vat etib kelayotgani ayni haqiqat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gumilev L. Qadimgi turklar.Toshkent: "Fan", 2007.-B.4.
2. Ibn Abu Usaybiya. Uyun al-anbo fi taboqot al-tib, (Ibn Sinoga bag'ishlangan fasl,) Misr, 1882. II.T.-3.B.
3. Xoja Muhammad Porso. Fasl-ul-xitob bi vusul-il ahbob. Inv. 42.1331.-B.299.
4. Inoyatov A.Zikrillaev G'. Qur'onikarim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi-T.: "Hilol nashr", 2022.-B.354.
5. Xoja Muhammad Porso.Tahqiqot. Buxoro. Markaziy AKM Sharq qo'lyozmalar bo'limi. INV /137 raqamli qo'lyozma. -B. 1.
6. Xoja Muhammad Porso.Tahqiqot. Buxoro. Markaziy AKM Sharq qo'lyozmalar bo'limi. INV /137 raqamli qo'lyozma. Muqaddima.